



Tadqiqot UZ

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



CONFERENCES.UZ

30 NOYABR

№34

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
34-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
34-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 34-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 12 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

**1. Qurbanova Mayjuda Hojiyevna**

ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG`ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH..... 7

**2. Davronova Oltinoy Mardonovna**

MAQOLLAR - INSONNNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA..... 10



## АДАБИЁТ

### ADABIYOT DARSLARIDA XALQ OG`ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH

**Qurbanova Mavjuda Hojiyevna**  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
2-maktab o`qituvchisi  
Telefon:+99891 338-46-10  
mavjudaqurbanova@mail.ru

**Annotatsiya:** Maqolada adabiyot darslarida mavzularni tushuntirishda xalq og`zaki ijodidan foydalanishning ahamiyati haqida so`z yuritilgan va mavzularga mos asotirlar, rivoyatlar berilgan

**Kalit so`zlar:** xalq og`zaki ijodi, asotir, rivoyat, avliyo, ilohiy, axloq-odob, ijodkorlik, jannah qushi.

Hozirgi davr olamini o`rganish bilish jarayonidagi ulkan taraqqiyot bilan alohida xususiyat kasb etadi. Hozirda tadqiqotchilar tomonidan ilm-u fanning yangidan-yangi sir-asrорlari kashf etilar ekan buning uchun xalqlarimizda uzoq o`tmishdan ma`naviy meros bo`lib kelayotgan asotirlar va rivoyatlarga murojaat qilish kerak. Binobarin faqat asotirlar va rivoyatlargagina emas balki, folklor asarlar, umuman xalq og`zaki ijodi ham bizni hozirgi kunda qiziqtirayotgan muammolarni tadqiq etishda juda qimmatli manba bo`lishi mumkin. Biz xalq og`zaki ijodidan har bir adabiyot darslarida foydalanishga harakat qilamiz.

VII sinfda A.Qodiriy haqida ma`lumot berib "Mehrobdan chayon" romanidan parcha o`qiganda romandagi ayyor timsol Abdurahmon domla, yoki 10-sinfda "O`tgan kunlar" romanidagi hasadgo`y Homid timsollari haqida fikr yuritayotganda "Jannah qushi" rivoyatini aytmay ilojimiz yo`q.

Qadim-qadim zamonlarda yaxshilar behishtda yomonlar do`zaxda yashaguvchi tomonlarda shunday ajoyib bir tamoyil bo`lgan ekan, jannahning darvozasida xudoning ishongan vakili, yani qizi-jannah qushi turar ekan. Xudo bu qushga joniga ishonganday ishonarkan. U ham otasining aytganlariga rioya qilib jannah darvozasidan biror noplari insonni ichkariga yo`latmas ekan. Badkirdorlar uyasi bo`lmish do`zax darvozasida esa xudoyi taolloning o`zi turar ekan. Bir kuni nimadir bo`lib xudoning ko`zi bir lahma ilinib mudrab qolibdi-yu, bir odamsifat maxluq do`zaxdan qochibdi. U jannah qushi yoniga boribdi, qush jannahga kiritmabdi. Odatda jannah qushi har yili ikkita tuxum qo`yib bola ochib, bularning biri halollik, biri go`zallik bo`lib dunyoga kelarkan. Alazmada maxluq kelib jannah qushining bitta tuxumini ilon tuxumiga almashtirib qo`yibdi. Shushu bo`libdi-yu jannah qushining nasli buzilibdi. Shunday qilib, yer yuzida asta -sekin do`zax-u jannah bandalari, yaxshi-yu yomon odamlar aralash-quralash bo`lib ketibdi. Bu holatdan bechora jannah qushi dunyoning eng chekka yurtlariga bosh olib chiqib ketibdi. Xudoyi taollomiz esa o`shandan beri qochoq maxluqni topolmay ovora emish. Jannah qushlarining qaysi biri o`z qizi, qaysisi ilon nasli ekanligini bilolmay hamon xunob ekan.

X sinfda A.Navoiy haqida ma`lumot berayotganda shoirning xalq oldidagi buyuk xizmatlari bayon etilgandan keyin shunday buyuk shoirning amalga oshmagani orzusi haqidagi rivoyatni keltirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Emishki, Ismoil Dabbos ismli kishi hajga otlanibdi. Yo`lda ketaturib Shayx Mo`min kulbasiga kiribdi.

- Yol bolsin, yigit, -debdi Shayx
- Hajga ketayapman, -debdi Ismoil
- Bu fikringdan qayt, -debdi Shayx



Ismoil Dabbos javob bermabdi. Buni ko'rgan Shayx:

- Ha , gapim yoqmadimi, darvesh ?
- Onang bormi? -deb so`radi Shayx
- Ha,-deb javob beribди Ismoil
- Men senga ellik marta piyoda hajga borganimning savobini beraman , sen menga onang ko`ngli shodligini bergin ,- debdi Shayx

Demak, onamiz ko`nglini biror ishimiz bilan quvontirsak, hajga borgan bilan barobar bo`larkanmiz. A.Navoiy ma`yus: «Onam hayot bo`lganlarida onam xizmatlarini bajarardim»-deb o`ksigandek bo`ldi –yu, lekin yana birdan ko`zları quvonchga to`lib: «Xalqimga xizmat qilsam, onamga xizmat qilgandek bo`lamon- ku!»- degan fikr uning o`ksik qalbiga dalda berandek bo`ldi.

A.Navoiyning «Hayrat-ul abror» dostonini o`qiyotganda asarga nom berilishi haqidagi quyidagi rivoyatdan foydalanish o`rinli.

Bir mamlakat podshosining sodiq quli bor ekan. Bir kuni ziyofat vaqtida ovqat tashiyotgan qulning oyog`i toshga toyib, qo`lidagi ovqat podshoning boshiga to`kilibdi.Bu holni ko`rgan ahli jamshiddagilar:- Podsho qulni o`limga buyuradi,- deb o`ylabdi.Podsho qulni butunlay ozod qilib yuboribdi.

Vazir :

- Ey podshohi olam , bir qoshiq qonimdan keching, bu qulning jazosi o`lim edi-ku, siz uni butunlay ozod qilib yubordingiz. Podsho:

- Qulni xijolat o`ldirdi, o`lgan kishini yana o`ldirib bo`ladimi ?

Bu gapni eshitgan bazmi jamshiddagilar nihoyatda hayratlanibdilar va A.Navoiy o`z dostoniga «Hayrat-ul abror» deb nom qo`yibdi, ya`ni «Yaxshi kishilarning hayratlanishi».

«Saddi Iskandariy» dostonini o`qiyotganda quyidagi rivoyatni unutmasligimiz kerak.«Men vafot etgandan keyin qabristonga olib borayotganda bir qo`limni tobudtan chiqarib qo`yinglar. Odamlar ko`rsinki, Iskandar shuncha mamlakatni egallab juda ko`p boylikka ega bo`lgani bilan u dunyoga hech narsa olib ketmaganini ko`rib qo`ysinlar. Tokim bu dunyoda mol-u davlatga mehr qo`ymasinlar» - deb Iskandar vasiyat qilgan ekan.

Xoja Ahmad Yassaviy hayoti va faoliyati bilan tanishayotganda ushbu rivoyat bizga qo`l keladi.

Muhammad Rasullulloh vafot etayotganda yaqin kishilarini to`plib: «Menden keyin islom dinini kelajak avlodga kim yetkazadi?». Shunda 300 yoshga to`lgan Arslonbobo «Men yetkazaman», -deb javob beridi. Arslonbobo avliyo kishi bo`lib 33 xil din bilan tanishib, shularning ichidan islom dinini tanlagan ekan. Oradan 500 yil o`tibdi. Sahrodan o`tib ketayotgan Arslonboboni uchratib qolgan 7 yoshli Ahmad Yassaviy «Omonatimni bering ustoz», - deb so`ragan ekan.

Arslonbobo haqida fikr yuritganimizda quyidagi rivoyatlardan foydalanamiz.

Dunyoda Arslonbobo nomli xislatli kishi o`tgan ekanlar. Arslonboboning bo`yi ikki-ikki yarim odamning bo`yiday ekan. Shu xislatli odam bir dam solish bilan daryo suvini orqaga oqizar ekan, yog`ayotgan yomg`irni to`xtatib, istasa havoga bulut chiqarib yomg`ir yog`dira olarekan. Arslonbobo- odamlarga yaxshilik qilib 900 yil yashabdilar. Arslonbobo kelib yashab qolgan, mo`jizalar ko`rsatib odamlar qoyil qoldirgan joy Arslonbobo deyiladigan bo`libdi. Bu kishi Ahmad Yassaviyning ustoz bo`lgan. Ahmad Yassaviyning ilohiyligi haqidagi quyidagi rivoyatdan foydalanilsa o`rinli bo`ladi.

Ahmad Yasaviyning ilohiylik kuchi 7 yoshidan namoyon bo`ladi. Mana shu rivoyat fikrimizni quvvatlaydi.

«Ahmad Yassaviyning ota-onasi Sayramuv bo`yida ekin ekip, dehqonchilik qilishar ekan. Bola Ahmad kun bo`yi dala kezib yurarkan. Bir kuni ota-onasi o`toq qilib toza qiynalibdilar. Shunda Ahmad egatga tushib olibdi-da, barmoqlari bilan sabzi ustini silab, «Begona chiq, yagona qol!»-deb ketaveribdi. Mo`jiza ro`y beribdi. Begona o`t alaf Ahmadning barmoqlariga ilashib chiqibdi, sabzipoyalar esa , egatda gurkirab qolaveribdi». Yassaviyning avliyoligi shundan boshlangan ekan. Ahmad Yassaviyning ilohiylik qudrati ko`zida bo`lganligini unutmasligimiz kerak.

Hozirgi kecha-kunduzda tinch-farovon hayot kechirayotgan xalqimiz orasida o`z foydasini o`ylab o`g`rlik qiladigan, hatto odam o`ldirishdan ham toymaydigan kishilar ham uchrab turibdi, balki shular biz yuqorida tanishib o`tgan rivoyatdagi ilon naslidan dunyoga kelgan kishilarga



to'g'ri kelar.

Dars davomida rivoyatlar orqali axloq-odob tarbiyasini berish amalga oshirilsa , ya'ni har bir o'qituvchi o'quvchilar ongiga ota-onaga , Vatanga, atrofdagilarga nisbatan mehr-oqibatli bo'lismeni , yoki to'g'ri so'zli bo'lismeni, kamtarinlik inson husni ekanligini , bu o'tkinchi dunyoda ochko'z bo'lmaslikni singdira olsa, dars samaradorligi oshadi, o'quvchilarning adabiyot faniga qiziquvchanligi ortadi. Bu o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq.

Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,  
Qo'lingdan kelguncha tera olsang bas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. N.B.Rabg`uziy "Qissai Rabg`uziy" Toshkent 1990-yil
2. "Adabiyotshunoslik terminlar lug`ati" T.1970-yil
3. "O'zbek asotirlari va rivoyatlari" T. 1994-yil
4. Abu Tohirxo`ja Samariya"Meror" T. 1991-yil
5. M. Jo`rayev."El desa Navoiyni". T.1991-yil
6. Oygul Muhammadjiyan qizi"Jannat qushi" T.1992-yil
7. N.Mallayev "Alisher Navoiy va xalq og`zaki ijodi" T.2015-yil



## MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA

**Davronova Oltinoy Mardonovna**  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 34-maktab  
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 99 953 37 45

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xalq og`zaki ijodi turi hisoblanmish maqollar va ularning ibratli tomoni, maqollarning turi, kelib chiqishi, mavzusi, inson hayotidagi o`rni haqida ma`lumot beriladi.

**Kalit so`zlar:** xalq og`zaki ijodi, maqol, tarbiya, ibratli saboq, so`z ko`rki.

Xalq og`zaki ijodida tarbiyaviyligi bilan maqollarning o`rni beqiyosdir. Maqollar odamlarning hayoti va tur mush jarayonida to`plagan tajribalari, dunyoqarashi, o`zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo`lgan munosabati, o`tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. So`z san`atining mahsuli sifatida maqollar ifodalananadi.

Alisher Navoiy o`zining ijodiy faoliyatida xalq og`zaki ijodini o`rganib, kishilar hayotida maqolning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida to`xtalib shunday baytni yozadi:

Kishiga necha mushkul hol,  
Hikmatu aql anga erur halol.

Kimki bilay desang maqolin angla,  
Asli bilay desang oni angla.

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko`rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir. Masalan, "Ona yurting omon bo`lsa, rangi ro`ying somon bo`lmas", – deymiz. Bu so`zlar zamirida vatanidan ayrilib, musofirlilikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro`yi somon bo`lgan kishning iztiroblari yotibdi. Yo bo`lmasa, "O`zgalar yurtida sulton bo`lguncha, o`z yurtingda cho`pon bo`l", – degan maqolni oling. Bu so`zlar zamirida ham katta hayotiy tajribalar mujassam. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur Mirzo esga tushadi. Hindistondek katta mamlakatga podsholik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig`lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo`q.

Ko`plab maqollarda ichki qofiya bo`ladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida "omon" bilan "somon", ikkinchisida "sulton" bilan "cho`pon" o`zaro ohangdosh, ya`ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o`xshab ketadi. Masalan, "Pak-pakana bo`yi bor, yetti qavat to`ni bor", – desak, bu yerda ham "bo`yi" va "to`ni" so`zlar qofiyadosh. Shunga qaramay ,u maqol emas. Chunki unda xulosa yo`q. Hukm yo`q. Unda sirlilik bor. Unda hamma so`zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizni "So`z ko`rki – maqol", deb bejiz aytilmagan), uning ta`sir kuchini oshiradi.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo`lib, unda ibratli fikr aytildi. Bu fikr rad etib bo`lmaydigan hokum shaklida keltiriladi. Masalan, "Ona yurting – oltin beshiging", "Olim bo`lsang, olam seniki!" kabi maqollarni hech bir e`tirozsiz qabul qilamiz.

"Maqol so`zi arab tilidan olingen bo`lib, "so`z" degan ma`noni bildiradi. Uni otalar so`zi ham deydilar. Maqol she`riy shaklda ham bo`lishi mumkin. Masalan:

Oltovlon ola bo`lsa, Og`zidagin oldirar.  
To`rtovlon tugal bo`lsa, Tepadagin endirar.

Bu maqol birlik, o`zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o`g`li bo`lsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil bo`lmasa, og`zidagilarini oldiradi. Ular istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To`rt aka-uka ahil bo`lsa, ular ko`p ish qila oladi. Ya`ni, ahillik bo`lsa, oz odam bilan ham katta ishlар qilishi mumkin. Ahillik bo`lmasa, ko`p ish bilan ham hech ish qila olmaysan. Bu – ma`nosi.

Ifodaga kelsak, "oltovlon", ko`pchilikni, "to`rtovlon" ozchilikni anglatyapti. "Ola bo`lmoq" noahillik, "tugal bo`lmoq" ahillikni bildirmoqda. "Og`zidagin oldirmoq" bor narsalarni boy deb berib qo`ymoq, "tepadagini endirmoq" qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma`nolarini anglatyapti.

Maqollar xilma-xil mavzularda bo`lishi mumkin. Masalan, do`stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat,adolat va hokazo. Aziz farzand, xalq maqollari – boyligimiz. Ota-



bobolarimizning siz bilan qoldirgan xazinalaridan biridir. Ularni izlab toping, sevib o`rgananing. Kerak o`rinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular butun umringiz davomida hamrohingiz bo`ladi. Har gapingizning salmog`i oshadi. Sermazmun, ta`sirchan, keskir bo`ladi.

**Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. O`zbek xalq maqollari. Toshkent. 2003-yil.
2. S. Ahmedov, R. Qo`chqorov. Adabiyot. 5-sinf darsligi. Toshkent. 2020-yil.
3. Internet ma`lumotlari.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 34-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.11.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000